

QIMMATLI QOG'OZLARNI MEHANIZMLASHTIRISH

Qahramonova Xusnora Asad qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universteti talabasi

ANNOTATSIYA: Qimmatli qog'ozlar - o'z egasiga mulkka egalik huquqini va daromad ko'rinishida muayyan pul summasini olish huquqini beradigan pul yoki tovar hujjatlari (aksiya, obligatsiya, akkreditiv, veksel, chek va boshqalar).

KALIT SO'ZLAR: Qimmatli qog'ozlar, Fond bozori, Aksiya, Aksiya turlari, Obligatsiya, Veksel, Chek.

Qimmatli qog'ozlar taqdim etuvchi yoki egasining ayrim huquqlari qayd etilgan maxsus tarzda rasmiylashtirilgan moliyaviy hujjat. Qimmatli qog'ozlar ma'lum shaxs nomiga yozilgan (ismli), dastlab sotib olgan shaxs nomiga yozilgan va uning roziligi bilan boshqa shaxsga o'tkaziladigan orderli va egasi yozilmaydigan (egasi ko'rsatilmaydigan) turlarga bo'linadi.

Fond bozori, qimmatli qog'ozlar bozori — moliya bozorining qimmatli qog'ozlar emissiyasi va ularning oldi-sotdisi bilan shug'ullanadigan sohasi. Fond bozorining asosiy vazifasi: investitsiyalarni, ya'ni, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga va texnika ravnaqiga zarur investitsiya mablag'larini to'plash hamda taqsimlash; qimmatli qog'ozlar paketlaridan foydalangan hodda mulk egaligini o'zgartirish; qimmatli qog'ozlar oldisotdisi yo'li bilan bozorni qayta taqsimlash; qimmatli qog'ozlar chiqarish yordamida davlat qarzini moliyalashtirish.

Fond bozori qatnashchilari kapital "iste'molchilari" (emitentlar) va uni "takdim etuvchilar" (investorlar)dir. "Iste'molchilar" davlat, mahalliy hokimiyat organlari, yirik milliy va xalqaro kompaniyalar hisoblanadi. Investorlar esa institutsional (qimmatli qog'ozlar bilan ish yurituvchi har xil moliyaviy kredit institutlari: tijorat va investitsiya banklari, sug'urta jamiyatlari, pensiya fondlari va boshqalar) va yakka (xususiy shaxslar,

shu jumladan, venchur biznesining uncha katta bo'lmagan korxonaga egalari) guruxlarga bo'linadi.

Fond bozori ishlari uning professional xodimlari: brokerlar (bitimda o'z kapitali bilan qatnashuvchi vositachilar), boshqaruvchilar (ishonib topshirilgan qimmatli qog'ozlarni idora qiladigan shaxslar), kliringlar (o'zaro majburiyatlarni aniqlash bilan shugullanuvchi tashkilotlar), depozitariylar (qimmatli qog'ozlarni saqlash bo'yicha xizmat ko'rsatadi); reyestr yurituvchilar (qimmat qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazish ishini bajaradi); savdosotiqni tashkil etuvchilar (qimmatli qog'ozlar bilan bitim tuzishga yordam berish xizmatini bajaradi); jobberlar (qimmatli qog'ozlar bozori kon'yunkturasi bo'yicha mutaxassislar) orqali amalga oshiriladi. Ular bilan birga qimmatli qog'ozlar bozoriga bank xizmatchilari, investitsiya fondlari xodimlari, shuningdek, moliyaviy bozor uchun zarur bo'lgan qonunchilik va nazoratni ta'minlovchi davlat xizmatchilari va yuristlar xizmat ko'rsatadi. Fond bozori infratuzilmasini fond birjasi, ro'yxat (reyestr)ga oluvchi muassasalar, depozitariylar tizimi tashkil etadi.

Fond bozori qimmatli qog'ozlarning kelib tushish vaqti va usuliga qarab birlamchi va ikkilamchi bozorlarga ajratiladi. Birlamchi bozor — Fond bozorining asosi hisoblanadi. Unda birinchi marta chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlar joylashtiriladi. Birlamchi bozorning asosiy qatnashchilari qimmatli qog'oz emitentlari va investorlardir. Investitsiya qilish uchun asosiy va aylanma moliyaviy kapital zaxiralari muhtoj bo'lgan emitentlar Fond bozorida qimmatli qog'ozlar taklifini belgilaydi. O'z kapitalini qo'llash uchun foydali soha izlovchi investorlar qimmatli qog'ozlarga talabni shakllantiradi. Birlamchi bozorda vaqtincha erkin pul mablag'larini jalb etish amalga oshiriladi. Lekin birlamchi bozor jamg'armani faqat milliy iqtisodiyot ko'lamidagina kengaytirish bilan chegaralanmaydi. Unda erkin pul mablag'larining iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari bo'yicha taqsimlanishi ham sodir bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qimmatli qog'ozlar keltiradigan daromad taqsimlanish mezonini bo'lib xizmat qiladi. Bu holat esa erkin pul mablag'lari eng ko'p daromadni ta'minlovchi korxonalar, xo'jaliklar, tarmoklar va sohalarga yo'naltiradi, degan ma'noni bildiradi. Birlamchi bozor yangi

chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning emitentlar tomonidan joylashtirilishini nazarda tutadi. Shu bilan birga korporatsiyalar, hokimiyatlar, o'zo'zini idora qiluvchi mahalliy organlar emitentlar bo'lishlari mumkin. Bunday emitentlar guruxlarining bozordagi ahamiyati mamlakatdagi iktisodiyot holati va uning umumiy taraqqiyot darajasi bilan aniqlanadi. Ko'pchilik mamlakatlarning davlat byudjetidagi doimiy taqchilik qimmatli qog'ozlar bozorida davlatning muhim rol o'ynashini ta'minlaydi. Yakka va institutsional investorlar ham qimmatli qog'ozlar xaridorlari bo'lishi mumkin. Bular tijorat banklari, pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari, o'zaro yordam fondlari va h.k.

Qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori — birlamchi bozorning zaruriy qo'shimchasi. Unda qimmatli qog'ozlarning olibsotarlik shaklidagi aylanmasi sodir bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha bitimlarning shakliga qarab ularni uyushtirilgan (birjali) va uyushtirilmagan (birjadan tashqaridagi yoki "ko'cha") bozorlariga ajratish mumkin. Uyushtirilgan bozorni fond birjalari tashkil qiladi. Qimmatli qog'ozlar bilan qilinadigan boshqa barcha bitimlar uyushtirilmagan bozorda amalga oshadi. Birjadan tashqari aylanmadagi savdoni mutaxassislar — brokerlar va dilerlik kompaniyalari olib boradi. Birjadan tashqari aylanmada savdo jarayonlarini bajaradigan yagona markaz yo'kligi tufayli oldisotdi bitimlari telefon va kompyuter tarmoklari orqali bajariladi. Narxnavolar birjadan tashqari aylanmani tartibga soluvchi qoida asosida kelishib belgilanadi.

Fond bozori moliyakredit tizimining tarkibiy qismi sifatida davlat boshqaruvi ob'yekti hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi investorlar manfaatini emitentlar va vositachilar tomonidan qilinadigan noqonuniy hattiharakatlardan himoya qilishdir. Shu maqsadlarda qimmatli qog'ozlar emissiyasi, ularning muomalada bo'lishi hamda qimmatli qog'ozlar bozorining professional qatnashchilari faoliyatini tartibga soluvchi, shuningdek, mamlakatda amalda bo'lgan tegishli normativ hujjatlar ishlab chiqiladi, maxsus ma'muriy idoralar tuziladi.

O'zbekistonda investitsiya jarayonlarini boshqarish va bo'sh turgan pul mablag'larni iqtisodiyotga jalb qilishning samarali vositasi bo'lgan Fond bozorining shakllanishi 90-yillar boshlariga to'g'ri keladi. 1993-yil 2-sentabrda bu bozor faoliyatining huquqiy bazasi bo'lgan O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida" qonuni qabul qilindi. Qisqa muddatlarda Fond bozori infratuzilmasining asosiy muassasalari — 1994-yilda "Toshkent" respublika fond birjasi o'z faoliyatini boshladi. Respublika Prezidentining 1996-yil 26-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi huzurida qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Markazini tashkil etish to'g'risida" Farmoniga ko'ra, respublikada qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi hisoblanadigan Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiklashtirish va nazorat qilish markazi tuzildi. 1999-yilda naqdsiz chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni saqlash, shuningdek, xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalaridagi davlat hissasi (huquqi) hisobini yuritadigan Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va 30 dan ortiq ikkinchi bosqich depozitariylarini o'z ichiga olgan ikki pog'onali depozitariylar tizimi tashkil topdi. Respublika Fond bozorida brokerlar, dilerlar, boshqaruvchi kompaniyalar, investitsiya fondlari, investitsiya maslahatchilari, reyestr yurituvchilar va investitsiya kompaniyalaridan iborat 300 dan ortiq professional qatnashchilar faoliyat yuritadi (2004). Ulardan "Elsis kliring" hisobkitob palatasi (1998) respublikada birlamchi (uyushgan) Fond bozori ishtirokchilari o'rtasida o'zaro hisobkitoblarni samarali amalga oshirishga ko'maklashadi. "Vaqt" milliy depozitariysi (1994) Fond bozorining yirik instituti bo'lib, qimmatli qog'ozlarni saklash va ularga bo'lgan huquklar hisobini olib boradi. "Davinkom" ("Davlat investitsiya kompaniyasi", 1999) xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarini investorlarga sotish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasining vakolatli vakili hisoblanadi. 2000-yilda respublikada investitsiya muassasalarining milliy uyushmasi tashkil etilgan. Uning tarkibida 45 dan ortiq investitsiya muassasasi bor. Aksiya (nemischa: Aktie; niderlandcha: Actie; lotincha: actio — farmoyish; ruxsatnoma, faoliyat) — aksiyador jamiyat chiqargan qimmatbaho qog'oz. O'z egasining aksiyadorlar

jamiyati kapitalida hissasi borligini va shunga muvofiq, topilgan foydaning bir qismini dividend shaklida olishini, uni boshqarishda ishtirok etish huquqini tasdiqlaydi. Aksiya qimmatli qog'ozlarning keng tarqalgan qismi, hissbay qog'ozlar turkumiga kiradi. Aksiya chiqargan jamiyat emitent, uni sotib olganlar esa investorlar deb ataladi. Aksiya dastlab emitent tomonidan birlamchi bozorda sotiladi, so'ngra u ikkilamchi bozorda (fond bozorida) qaytadan oldi-sotdi etiladi. Aksiya bevosita emitent yoki vositachilar tomonidan sotiladi. Aksiya davlat korxonalari aksiyador jamiyatlarga aylantirilgan chog'da va yangidan aksiyadorlar jamiyatlari tuzilgan paytda chiqariladi. O'zbekistondagi Aksiya davlat mulkini aksiyadorlash jarayonida 1989-yildan boshlab chiqarilgan. Aksiya egasining nomi yozilgan va taqdim etgan kishiga tegishli Aksiyaga bo'linadi. O'zbekistonda aholi orasida birinchi turdagi Aksiya tarqalgan. Aksiya oddiy va imtiyozli turlarga bo'linadi. Oddiy Aksiya dividend miqdori kafolatlanmagan, lekin aksiyadorlar majlisida ovoz berish huquqini ta'minlovchi Aksiya imtiyozli Aksiya dividend oldindan belgilangan, lekin ovoz berish huquqini ta'minlamaydigan Aksiya egasining o'zida yoki depozitariylarda saqlanadi. Mas, 1995-yilda "Vaqt" milliy depozitariysida 2040 aksiyadorlik jamiyatlarining umumiy nominal miqdori 4 mlrd. so'mlik aksiyalari saqlandi.[1]

Aksiya — bu uning egasi hissadorlik jamiyati kapitaliga o'zining ma'lum hissasini qo'shganligiga va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatbaho qog'ozdir. Bundan tashqari, aksiya korxonani boshqarishda qatnashish huquqini ham beradi.

O'zbekistonda aksiyalar, Markaziy depozitariy, Kapital bozorini rivojlantirish agentligi — hozirda Moliya vazirligi tarkibidagi department, shuningdek, openinfo.uz — korporativ axborot yagona portali va ma'lumot oshkoraligini ta'minlovchi boshqa vositalar yordamida muomalaga kiritiladi.

Aksiyalar maxsus tovar sifatida sotiladi va sotib olinadi, shu sababli o'zining narxiga ega. Aksiyada ifodalangan pul summasi uning nominal qiymati deyiladi. Aksiyaning fond bozorida sotiladigan narxi aksiya kursi deb atalib, u olinadigan dividend miqdoriga to'g'ri

mutanosib, foiz miqdoriga esa teskari mutanosiblikda bo'ladi. Xaridor aksiyani undan olinadigan daromadi bankka qo'yilgan puldan keladigan foizdan kam bo'lmagan taqdirdagina sotib oladi.

Aksiya aksiyadorga 2 xil huquqni beradi:

- 1) mulkiy huquq.
- 2) nomulkiy huquq.

Aksiyalarni ro'yxatga olish bo'yicha fond bozorida qayd etilgan va qayd etilmagan turlari bor. Aksiyalar investorni quyidagi xususiyatlari bo'yicha jalb qiladi:

1. Ovoz berish.
2. Kapitalni o'sishi.
3. Qo'shimcha imtiyozlar.
4. Keyingi emissiyaga yozilish huquqi.
5. Mulkka egalik qilish huquqi[3]

Obligatsiya (lotincha: obligatio — majburiyat) — qiymatiga nisbatan egasiga (qat'iy belgilangan daromad keltiruvchi) qimmatli qog'oz, qarzni qaytarib berish va foiz to'lashni tasdiqlovchi majburiyatnoma. Fond birjalarida sotiladi. Obligatsiya aholi, korxonalar va tashkilotlar qo'lidagi pul mablag'larini to'plab, biror maqsad yo'lida safarbar etish uchun chiqariladi. Obligatsiya, asosan, davlat, mahalliy va korporatsiya Obligatsiyalariga bo'linadi. Daromad davlat tomonidan chiqariladigan Obligatsiya bo'yicha yutuq, kompaniyalar Obligatsiyalariga foiz shaklida to'lanadi. Obligatsiya uyushtirilgan savdo orqali (birjalarda) va erkin joylashtiriladi. Obligatsiya moddiy yoki pul mablag'i evaziga kafolatlangan yoki kafolatlanmagan, ya'ni Obligatsiya chiqaruvchilarning chin so'zi va obro'si bilan ta'minlangan yoki ta'minlanmagan bo'lishi mumkin. Ba'zi Obligatsiyalar konvertirlanadi (Obligatsiya egasi uni boshqa Obligatsiyaga almashtirib olish huquqiga ega bo'ladi). Obligatsiyaning bozor narxi uning nominalidan yuqori yoki past bo'ladi.

O'zbekistonda Obligatsiyalar asosan tijorat banklari va aksiyadorlik jamiyatlari (AJ) tomonidan chiqariladi. Shuningdek, 2020-yilning fevral oyidagi qonunchilikdagi

o'zgarishlarga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlar (MChJ) ham korporativ obligatsiyalar chiqarishi imkoni yaratilgan.

Veksel (nem. Wechsel — ayirboshlash) — ko'rsatilgan muddatda muayyan miqdordagi pulni to'lash majburiyati qayd etilgan qarzdorlik haqidagi rasmiy hujjat; qimmatli qog'oz. U universal to'lov, kredit va hisob vositasi bo'lib, xalqaro savdoda to'lov majburiyati; qisqa muddatli (6 oy) tijorat-kredit vositasi; banklararo uzoq muddatli munosabatlarni shakllantiruvchi vosita; banklardan ssuda olish uchun garov (shuningdek tijorat banki markaziy bankdan ssuda olishda beradigan garov) tarzida keng qo'llaniladi. Vekselning asosan oddiy Veksel (qarzdor tomonidan muayyan summani belgilangan muddatda qaytarish haqida qarz beruvchi oldidagi majburiyat), o'tkazma Veksel (qarz beruvchining qarzni Vekselni taqdim etuvchiga yoki hujjatda ko'rsatilgan shaxsga to'lash haqidagi buyrug'i), xazina Veksel (o'z harajatlarini qoplash uchun davlat tomonidan chiqariladi), moliya Veksel (bir bank boshqa bankka qarz puli olish uchun beradi), tijorat Veksel (tovar egasiga garov tarzida beriladi) va b. turlari bor[1].

Veksel hisob vositasi va ayirboshlash hujjati sifatida Yevropa mamlakatlarda 17-asrda shakllandi. 19-asrning oxiridan boshlab Turkistondagi xususiy tijorat banklari savdosotiqda veksel muomalasini keng yo'lga qo'ygan. Sobiq Ittifoqda, shu jumladan O'zbekistonda veksel yangi iqtisodiy siyosat davrida (davlat hamda kooperativ korxonalar o'rtasidagi munosabatlarda) ham ishlatilgan. 1930—32 y.lardagi kredit islohotida bevosita maqsadli bank orqali kreditlashga o'tilishi bilan mamlakat ichida Veksel muomalasi tugatilgan. Boshqa ko'pgina davlatlarda Veksel muomalalari 1930 y. Jenevada qabul qilingan "Veksel to'g'risida"gi konvensiyaga muvofiq olib boriladi. Unda V.ning kuyidagi majburiy unsurlari bo'lishi qat'iy belgilangan: Veksel belgisi — "Veksel" yozuvi; V.da ko'rsatilgan summani so'zsiz to'lash majburiyati; qarz to'lovchi va birinchi Veksel egasining nomi; remitent nomi; to'lov muddati va joyi; V. to'ldirilgan sana va manzil; Veksel beruvchining imzosi.

Vekselni amal qilish muddatini cho'zish (Veksel prolongatsiyasi) qonunga muvofiq yoki trassant va trassatning o'zaro kelishuvi asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil. 2-sentabrdagi "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq 1994 y.dan boshlab O'zbekistonda Veksellar muomalaga kiritildi. Veksellar naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishning eng qulay vositasi sifatida korxonalar va tashkilotlarda keng qo'llaniladi.

Chek (forstoj — pul hujjati) — 1) bankdagi hisobvaraqlar egasi (Chek beruvchi)ning muayyan summadagi pulni biror shaxs (Chekni taqdim qiluvchi)ga to'lash to'g'risida bankka yoki kredit muassasasiga yo'llagan yozma buyrug'i, farmoyishi; pul hujjati, kimmatli qog'oz turi. Chek yoziladigan qog'oz (Chek qog'ozi) belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan blanka (ish qog'ozi) tarzida maxsus daftarcha holda chiqariladi. Chek beruvchi o'z hisobvarag'idan o'zi uchun pul olishda ham Chekdan foydalanadi. Cheklar nomi ko'rsatilgan (aniq bir shaxs nomiga yozilgan), order (biron bir shaxs foydasiga yozilgan) yoki taqdim etiladigan (taqdim etuvchiga yozilgan) turlarga bo'linadi. Banklar o'rtasidagi o'zaro hisobkitoblarda bank Cheklari, sayohat va xizmat safarlarida har qanday bankda tezda naqd pulga almashtirish mumkin bo'lgan yo'l Cheklari ishlatiladi. Yo'l Cheklari nakd pul va kredit kartochkalari kabi to'laqonli to'lov vositasi bo'lib, unda taqdim etuvchining nomi ko'rsatiladi,

Xulosa qilib ayatamanki: Korxonalarining aksiya, obligatsiyalari va davlat obligatsiyalari qimmatli qog'ozlarning asosiy turlari hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar korxonalar kapitalida qatnashish yoki pulni ssudaga taqdim etish va dividend yoki foiz tarzida daromad olish huquqini beradi. Qimmatli qog'ozlar o'z egasiga daromad keltirgani uchun fond birjasida ma'lum kurs bo'yicha oldi-sotdi qilinadi (qarang Fond bozori).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Т.Маликов, Н.Хайдаров. Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. 2007
2. Т.С. Маликов, Н.Х. Хайдаров. Финансы: государственные финансы. Учебное пособие. Экономика и финансы. Ташкент. 2009

3. Низомиддин Гайдаров, Фуркат Х,алимов. Жисмоний тарбия ва спорт муассасалари ва уларнинг мамлакат Ижтимоий-иқтисодий ҳаётида тутган урни. Иқтисодиёт ва таълим. 2020/11/26
4. Низамиддин Хайдаров. Роль таможенного дела в ускорении межгосударственных экономических отношений. Техничко-технологические проблемы сервиса, 2019
5. Н.Х.Хайдаров. Роль иностранных инвестиций в финансовом оздоровлении Узбекистана. Финансы и кредит, 2001
6. Хайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Т.: Иқтисод-молия, 2009